

TA'LIM FUNKSIYALARINI AMALGA OSHIRISH TEKNOLOGIYALARI-SAMARADORLIK GAROVI



Abstract:

Ushbu maqolada ta'lim jarayonida samarali ta'lim texnologiyalari va ularning funksiyalari haqida yoritilgan. Ta'lim olish stixiyali, ijtimoiy munosabatlar asosida, ya'ni mikrofaktorlar, mezofaktorlar, matbuot, kundalik hayot tajribalari asosida va tabiiy oqibatlar zaminida ma'lum ko'nikma, malakalar shakllanib boradi. Ta'lim olishning samaradorligi shaxsning atrof borliqqa, jamiyatga faol munosabatiga bog'liq. Insoniyatning hayotga emperik yondashishi va ma'lum tajribalarni umulashtirish, hulosa qilishi zaminida ilk halq pedagogikasi shakllandi. Halqimiz tili bilan aytganda hayot maktabida stixiyali bilim o'zlashtirish bilan birga ta'lim maxsus tashkil etiladigan jarayon hamdir. Belgilangan maqsad vazifalar asosida ta'lim tarbiya jarayonini tashkil etiladigan jarayon maktab ta'limi deb ataladi.

Key words:

ta'lim, tarbiya, texnologiya, funktsiya, metod, qobiliyat, bilim, ko'nikma, pedagog, malaka.

Author of the article:

**Raxmanova Maxliyo
Faxritdin qizi**

Workspace (Education subject)

**Vazirlar mahkamasi qoshidagi
Tadbirkorlik va biznes oliy maktabi
magistranti**

Odatda ta'lim tushunchasini yosh avlodga ma'lum bilim, ko'nikma, malakalarni etkazish deb ta'riflanadi. Ammo, etkazish tushunchasi ta'limning mohiyatini to'laqonli yoritib bera olmaydi. Chunki, bilim, ko'nikma, malakalar biror predmet emaski, uni to'laqonli holda qabul qilib olsa. Har qanday ilm ta'lim jarayonida o'quvchilarda osonlik bilan bilimga aylanib qolmaydi. Ilmning bilimga aylanishi uchun bir qator ob'ektiv shart-sharoit yaratilishi lozim. Bunda o'quvchilarning ta'lim jarayonidagi faol munosobati, o'qituvchining ta'lim jarayoniga faol munosobati, ta'lim vositalari bilan ta'minlanganlik darajasi, o'qituvchining pedagogik mahorati va boshqa omillar. SHuning uchun o'qituvchi va o'quvchini "bilim etkazuvchi" va "bilimni qabul qiluvchilar" sifatida qaray olmaymiz. Afsuski, maorif hayotida "bilim etkazuvchilar", ya'ni pedagoglarimiz bilimni o'zlashtirishda ortda qolayotgan o'quvchilarni "qoloq", "ikkichi", "qobiliyatsiz" deb atashadilar, ammo ta'lim jarayonining omillariga to'laqonli e'tibor bermaydilar.

Ta'lim jarayoni deganimizda ta'lim oluvchi va ta'lim beruvchining belgilangan maqsadlar asosida o'zaro hamkorlikdagi faoliyati bo'lib, ma'lum bilim, ko'nikma, malakalar shakllanishi bilan tugallanishi lozim.

Ta'lim jarayoni faqat belgilangan ilmni mexanik ravishda bilimga aylantirish bo'lib qolmay, balki, ta'lim olishni boshqarish, o'quvchilarda bilishga bo'lgan ichki tashabbusni uyg'otish, o'zlashtirish darajasini aniqlash, nazorat qilish va baholash kabi pedagogik -psixologik masalalarni o'z ichiga oladi.

Demak, ta'lim shunda amalga oshishi mumkinki, qachon inson faoliyati ongli ravishda boshqarilib belgilangan bilim, ko'nikma, malaka, hulq, faoliyat, shakllantirilib borilsa va belgilangan natijalarga erishilsa, bu pedagogik faoliyat mahsus tashkil etilgan ta'lim darajasiga erishiladi. Bugungi kunda zamonaviy pedagogik texnologiyalarning bosh maqsadi ta'lim jarayonining samaradorligini uning natijasi asosida baholashdan iborat. O'quv faoliyati o'z tarkibiga bir qator pedagogik-psixologik faoliyatlarni birlashtiradi. Bular: 1. Gnostik faoliyat. Uning asosiy maqsadi borliqni idrok etish. 2. Perseptiv faoliyat. Masalan: ko'rib chiqish, eshitish, kuzatish yoki simvolik faoliyat (tasvirlash, belgilash) 3. Amaliy faoliyat, ya'ni pedagogning ko'rsatmalari asosida bajarish.

O'quv faoliyati jarayonida yuqorida qayd etilgan faoliyatlar ichida gnostik faoliyat ustivorlik xususiyatlariga ega bo'lib, uning asosida ta'limning rivojlantiruvchi maqsadi amalga oshiriladi. Pedagogik jarayonda o'qituvchi ushbu psixologik faoliyatni yuzaga keltiruvchi

pedagogik metodlardan unumli foydalanishi lozim. Bunda reproduktiv va produktiv metodlardan foydalanish muhim ahamiyatga ega.

Ta'lim olish aqliy faoliyatning ma'lum hatti-harakatlari asosida yuzaga keladi. U pedagogik jarayonni to'g'ri, bosqichma-bosqich holda belgilangan funksiyalar asosida amalga oshiriladi. Bular quyidagi funksiyalardan iborat:

1. O'quv mazmunini passiv holda qabul qilish va idrok etish, o'zlashtirish;
2. Ma'lumotlarni faol, mustaqil holda izlash va topish;
3. Belgilangan ta'lim mazmunidan tashqari qo'shimcha materiallarni izlash va topish;

Endi ushbu bosqichlarni pedagogik-psixologik jihatdan ko'rib chiqamiz:

Ta'lim mohiyat-e'tibori bilan dars berish jarayonini, ya'ni pedagog (o'qituvchi) faoliyatini, umuman o'quvchining bilish, o'rganish faoliyatiga rahbarlik qilishni hamda uqish jarayonini, ya'ni o'quvchi faoliyatini bildiradi. Ta'lim jarayoni ta'lim beruvchi – o'qituvchi va ta'lim olayotgan o'quvchilar faoliyatining yig'indisidan iborat. Ta'lim va tarbiya jarayonida shaxsning sifatleri, dunyoqarashi, qobiliyati o'sadi. Ta'lim avlodlar o'rtasidagi ma'naviy vorislikni ta'minlaydi: kishilarning ijtimoiy-tarixiy tajribalari yosh avlodga ta'lim orqali o'tadi.

Ta'limning maqsadi obyektiv hayot talablariga muvofiq holda o'zgarib borishi kabi, ta'limning xarakteri, yo'nalishi ham uning maqsadiga muvofiq o'zgarib boradi. Ta'lim dialektik tarzda taraqqiy etib boradigan ichki ziddiyatlar jarayonidir. Ta'lim bilish qobiliyatleri, qistuyg'ular, idrok, shaxsni tarkib toptiruvchi kuchli omildir.

Ta'lim jamiyat qurilishining muhim muammolarini hal qilish – jamiyatning moddiy-texnika bazasini yaratish, ijtimoiy munosabatlarni tarkib toptirish, yangi kishini tarbiyalashga yordam beradi.

Ta'lim o'quvchining bilish qobiliyatini o'stiruvchi asosiy omildir. O'quvchilar qobiliyatini o'stirishga qaratilgan tizimlar muayyan didaktik qoidalar tarzida namoyon bo'ladi. Didaktik tamoyillarda ta'limning mazmuni va jarayonlariga qo'yilgan talablar belgilanadi. Ta'limning maqsadi va vazifalari ijtimoiy tuzum, shuningdek muayyan o'quv yurtleri funksiyasiga muvofiq tarixan o'zgarib boradi.

O'zbekiston Respublikasining 1997-yil 29-avgustda qabul qilingan „Ta'lim to'g'risida“gi qonuni va Kadrlar tayyorlash milliy dasturi ta'lim tizimining barcha yo'nalishlarini takomillashtirish va rivojlantirish uchun keng imkoniyatlar ochib berdi. 1996-yildan boshlab lotin imlosiga asoslangan yangi o'zbek alifbosi joriy etildi va shu yildan boshlab yangi yozuv asosida dasturlar, qo'llanmalar va darsliklar yaratishga kirishildi, o'qituvchilar lotin imlosi asosidagi yangi o'zbek alifbosi bo'yicha qayta tayyorlash kurslaridan o'tkazildi. Xalq ta'limi bo'limleri qoshida bolalarni maktab ta'limiga tayyorgarligini belgilaydigan „Tashhis markazleri“ tashkil etildi.

O'quvchilarning bilim va ko'nikmalarini reyting asosida nazorat qilish, maktab bitiruvchilarni yakuniy attestatsiyasini kompyuter yordamida test orqali amalga oshirish, Ta'lim amaliyotini diagnostik taxil etish, Ta'lim muassasalarida marketing tizimidan foydalanish kabi qator pedagogik yangiliklar joriy etildi.

Ta'lim mazmuni uning maqsadiga muvofiq, ijtimoiy shartsharoit, fan va texnika, san'at holati va shu kabini hisobga olgan holda belgilanadi. Kasb-hunar kollejlari, o'rta maxsus va oliy o'quv yurtleridagi Ta'limning mazmuniga umumiy ma'lumotdan tashqari muayyan kasb va mutaxassislik uchun zarur bo'lgan maxsus bilim, malaka va ko'nikmalar ham kiradi. Ta'lim mazmuni o'quv reja va dasturlari,

darslik va boshqalarda yoritiladi. Ta'limda qo'yilgan maqsadga erishish uchun turli metod, vosita, tashkiliy tizim va shakllar (ma'ruza, suhbat, tajribalar o'tkazish, ko'rgazmali qurollarni qo'llash, kuzatish, mashq va shu kabi) dan foydalaniladi.

O'quv jarayonida texnik vositalar (kino, televideniye, radio, kompyuter, EHM va boshqalar)ni keng qo'llash ta'lim metodini ishlab chiqishga katta ta'sir ko'rsatadi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO'YXATI

1. Sh.M.Mirziyoyev. "Yangi O'zbekistonning taraqqiyot strategiyasi". -Toshkent: "O'zbekiston", 2022.
2. O'zbekiston Respublikasining «Ta'lim to'g'risida»gi Qonuni. T., «O'zbekiston», 2020-yil 23-sentabr.
3. "Maktabgacha ta'lim va tarbiya to'g'risida" O'zbekiston Respublikasi qonuni 595-sonli qonun.2019-22-oktyabr.
4. Pedagogika.R.Mavlonova, O.To'rayeva, K. Xoliqberdiyev. Toshkent, O'qituvchi nashriyoti,2006y
Pedagogika tarixi. A. Zunnunov, B.To'xliyev, X.Ma'sudov.Toshkent, Sharq nashriyoti, 2002y